

**ABDULLA QAHHORNING BADIY ASAR YARATISHDA DETAL
QO'LLASH MAHORATI**

Mulkamonova Sanobar +998912299633

Termiz davlat pedagogika institute 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada badiiy detallarni qo'llashda Abdulla Qahhor mahorati hamda obrazlarni ideallashtirish, voqealar tafsilotini kengroq yoritishda detallarning roli o'rganilgan. Dunyoni anglash, kuzatishlar mahsuli bo'lgan badiiy obrazlarni yaratishda detallardan foydalanishning nechog'lik muhimligi tahlillar vositasida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar. Abdulla Qahhor, detal, "Daxshat" hikoyasi, obraz, tafsilot, predmet detal, Unsin, Olim dodxo, Nodirmohbegim, badiiy mahorat.

Abdulla Qahhor's skill of applying details in creating an artistic work

Mulkamonova Sanobar +998912299633

Termiz State Pedagogical Institute 2nd level master's student

Annatation

The article examines Abdulla Qahhor's skills in using artistic details and the role of details in the idealization of images and the wider coverage of events. The importance of the use of details in creating artistic images, which are the product of understanding and observation of the world, is shown by means of analysis.

Keywords. Abdulla Qahhor, detail, "Dakhshat" story, image, detail, object detail, Unsin, Olim dodho, Nodirmohbegim, artistic skill.

**Способность Абдуллы Каххора использовать детали при создании
художественного произведения.**

Мулкамонова Санобар

Термезский государственный педагогический институт магистрант 2
ступени

Аннотация. В статье исследуется умение Абдуллы Каххора использовать художественные детали, идеализацию образов, роль деталей в более широком освещении событий. Посредством анализа показана важность использования деталей в создании художественных образов, являющихся продуктом познания и наблюдения мира.

Ключевые слова. Абдулла Каххор, деталь, рассказ «Дахшат», образ, деталь, деталь предмета, Унсин, Олим додхо, Нодирмохбегим, художественное мастерство.

Qadimdan ijod namunalari dunyoga kelishi bilan ommaga havola qilingach, u turlicha davralarda yoki shaxslar tomonidan tahlil qilingan. Asar tahlilsiz hech qachon ommalashib qolmaydi, chunki badiiy asarni har kim har xil tahlil qiladi, talqin qiladi va o'zni kelganda tanqid qiladi. Bunda yozuvchining badiiy tafakkuri, o'quvchining qabul qila bilishi, ongi ham alohida ahamiyatga olingan. Ma'lumki, borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning markazida inson obrazi turadi. Badiiy obraz yaratish va bu jarayonda foydalanilgan unsurlarning ko'lami yozuvchining mahoratini belgilaydi. Ijodkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglayanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli hisoblanadi. Obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi "obrazli tafakkur" deb yuritiladi. Yozuvchi ko'z oldimizda konkret badiiy obrazni gavdalandirish jarayonida uning taqdiri, turmush mashaqqatlari-yu, qalbidagi kechinmalarini badiiy detal yordamida tasvirlash orqali o'sha davr hamda muhit hayotini ko'rsatib bera oladi. Ijodkor umumlashma tushunchalar orqali fikrlaydi. Ya'ni badiiy obraz yaratishda detallardan mohirona foydalanib, ijtimoiy muhit haqida ham fikr yuritadi. U bir inson taqdirini badiiy tasvirlash (obrazini yaratish) orqali umumlashmaga boradi, baski, obraz uning uchun fikrlash shakli, obrazni yaratishda detalning ifodalanishi badiiy tafakkurning teranligini bildiradi.

San'at hamisha konkret bir odamning obrazini yaratadi, shu boisdan ham konkretlik badiiy obrazning muhim spetsifik xususiyatlaridan biridir. Detallar badiiy obrazni konkret tasvirlashga xizmat qiladi. Ya'ni konkretlik predmetning individual xususiyatlarini tasvirlash orqali ta'minlanadi. Yozuvchi umumlashmaga obrazning muayyan bir individual xususiyatlarini bo'rtiq , ta'kidlabroq, ko'zga



tashlanadigan qilib tasvirlangan detallar orqali erishadi. Badoiy asarda obraz yaratish va uni tipiklashtirishda detal muhim ahamiyatga ega. O'zbek hikoyachiligida o'z o'rniga ega ijodkor Abdulla Qahhor asarlari ko'p bora tadqiq etilgan. Biroq bugunga qadar yozuvchining badiiy obraz yaratishda detallarning ifodalanishi o'rganilmaganligiga e'tibor qaratsak. Buning uchun yozuvchi asarlaridagi detallarni tadqiq etish muhimdir.

"Adabiyotimizning yirik vakili, o'zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o'n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko'p avlodlar uchun mulohaza ob'ekti bo'lib qolishi shubhasizdir." [14;4-5]

Abdulla Qahhor hayotdagi odamlarning tovushi eshitilib, qiyofasi yaqqol aks etib turgan, ularning ichki dunyosini oynaday ko'rsatib bera olgan adabiyot olamini rus mumtoz adabiyotidan topgan. U o'qigan kitoblar orasidan Chexov asarlari Abdulla Qahhorga shu darajada samarali ta'sir etadiki, hatto bugungi kunda adibni "O'zbek adabiyotining Chexovi" deya e'tirod etadilar. "...Abdulla Qahhorni "O'zbek adabiyotining Chexovi" deb atash ham birinchi galda shu tashqi belgi- ixcham hikoyalar bitishdagi umumiylik sababli paydo bo'lgandir. Biroq detallashtirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor ijodi, avvalo, o'zining ichki ohangi, badiiy uslublari, hayotga nazar tashlash yo'sinlari, voqelikning ko'z ilg'amas ichki oqimini payqay bilish singari xislatlari bilan namoyon bo'ladi. ... xarakter yaratishda, obrazlarning individual xislatlarini bo'yoqdor ko'rsatishda ham Abdulla Qahhor A.P.Chexovga yaqin turar edi. U har bir personajni faqat unga xos so'zlar bilan gapirtira olar, shu yo'l bilan yaxlit va ko'lamlil manzaralar yarata bilar edi." [11;39-40]

Yozuvchi asarlaridagi har bir badiiy obraz, syujet voqealari va ularni yaratishda qo'llanilgan detallar hayot haqiqatiga to'laqonli mos keladi. Ko'rish mumkinki, yozuvchi asarlaridagi qahramonlarning ko'pi - oddiy odamlardir. U ana shu oddiy odamlarning ruhiyatini his etgan, dardini o'z iztirobidek qabul qilib, taqdiriga kuyingan. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor ular to'g'risida to'qima xarakter va yasama qiyofa yaratishdan yiroq bo'lgan. Misol uchun adibning "Daxshat" hikoyasidagi Olim dodxo obrazini olaylik. U johillik va zulmkorlikni o'zida mujassamlashtirgan obrazdir. Biroq yozuvchi hikoyaning hech bir joyida uni johil



yo'xud zulmkor deya nomlamagan. Bu o'rinda obrazlilikdan foydalanishning yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, obrazli tafakkur badiiy asar ruhiga jon baxsh etuvchi tasvir hisoblanadi. Obrazli tasvirlarni asarda o'rinli qo'llash san'atkorning mahorat tajribasi yuksakligini ifodalaydi. Asarda Olim dodxonning johilligi keng ta'rif bilan keltirilmaydi, aksincha ba'zi o'rinlardagina detallar vositasida tasvirlangan qisqa lavhalarda tasvirlab o'tiladi. Qolaversa, bir o'rinda uning zulmmkorligi "Bittasi gunoh qilsa, barchasi baravar kaltak yeydi", degan tasvirda beriladi. Bundan ko'rinadiki, haqiqiy aybdorni farqlamasdan, gunohsiz insonlarni jazolash - zulmkor kishigagina xosdir. Keyingi jummalarda biz uning johilligini yanada aniqroq ifodalovchi jummalarni uchratamiz: " Biroq, dodxo hammaning kutganiga qarshi, qo'lga qamchi olib Unsinni "qayering qichidi" ga solmadi, aksincha, zaharxanda bilan bo'lsa ham, muloyim gapirdi."

"Qayering qichidi" nutqiy detali orqali Olim dodxonning zulm borasida qamchisidan zahar tomishi tasvirlab berilgan bo'lib, bunda uning bo'lar- bo'lmasga xotinlarini qamchilashi anglashiladi. Hikoya davomida shu kabi turli lavhalar orqali dodxonning johiliyati ko'rsatib berilar ekan, Nodirmohbegimning Unsinni qabristonga borushdan qaytarish uchun yolvorganida uni momataloq qilib savalagani Olim dodxonning zulm va johillik borasida naqadar shafqatsiz ekanligini ko'rsatadi. Guvohi bo'lganimizdek, Abdulla Qahhor yuqoridagi lavhalar orqali Olim dodxo portretini tasvirlaydi. Uni shunchaki johil yoki zulmkor kishi edi, - deya aytib o'tmasdan keng qamrovli voqea-hodisalar orqali tavar etish mahorati - Abdulla Qahhor uslubigagina xosdir. Adib uning zulmkorligini ifodalovchi lavhalarni berar ekan, Olim dodxo xonadonidagi jaholat va zalolatning intihosi va chegarasi yo'qligini ko'rsatib beradi. Bu tasvir hikoyaga siqishtirib berilgan hayotiy tafsilot orqali namoyon bo'ladi.

"...Abdulla Qahhorning qahramon tanlash va xarakterini tipiklashtirishdagi talabiga e'tibor qaratishni istar edim. Yozuvchi asarlarida ibratli obraz va qahramon bor, lekin ideal obraz ham, qahramon ham yo'q. Bu san'atkorning tom ma'nodagi realist ijodkorligi va haqqparastligi ham, yo'qni bor demagani, soxta va so'xtasi sovuq kitobiy qahramonlarni bino qilib siyosat "tegirmoni"ga suv quymagani, kitobxonni aldamaganida yaqqol namoyon bo'ladi. " [16;249]

Asardagi Unsin obrazi orqali erkka intiluvchan qiz taqdiri ifodalanadi. Hikoyada Unsinning ozod bo'lish uchun intilishi va oxirigacha jasorat bilan kurashishi tasviri hayotiy tarzda beriladi.



Shoir Jamol Kamol ta'biri bilan aytganda, Abdulla Qahhor kiygan "qo'qoniy to'n" hamda u bog'lagan belbog'ni hech kim kiyib bog'lay olmaydi. Buni "Daxshat" hikoyasi orqali emas, balki boshqa asarlar orqali ham anglashimiz mumkin. Badiiy asarda tiriklik ruhini aks ettiruvchi so'zlarni mahorat bilan qo'llab, hayotning turli ziddiyatlari-yu murakkab hodisotlarini lo'nda tasvirlash Abdulla Qahhor uslubining o'ziga xosligini belgilaydi. "Abdulla Qahhorning so'zga munosabati, so'z qo'llash san'ati ko'pchilikka ma'lum: u so'zga bexad xasis. So'zni haddan ziyod tanlab, chertib-chertib ishlatadi. Undan bizga meros qolgan asarlarning aksariyati tomiridan qon yugurayotgan, ko'zi, qulog'i, shuuri ochiq so'zlardan yaralgani bilan ham alohida ahamiyatga ega." [16;260]

Detallar vositasida oydinlashtirilgan Unsinning kurashi hayotiy manzaralar orqali tasvirlab beriladi. Hikoya syujetining taranglashib borishi, insoniy intilish manzarasi, ruhiy jarayonlar oqimi ham aynan shu erk uchun kurash tasvirida ifodalanadi. Unsinning Olim dodxo xonadonidan ozod bo'lish uchun kurashi bir halqa atrofida keltiriladi. Ya'ni, uning dodxo bilan garovlashib qabristonga yo'l olishi, u yerdagi vahimali holatlar, tugi shamol qo'quvi, mozordagi oliv yoqish uchun bo'lgan qiyinchilik va qo'rquvlar, choynakni olib qumg'onni unutishi, qabrga oyog'i tushib ketishi, dodxo makkorligining namunasi bo'lgan - maymun hamlasidan hushini yo'qotishi hamda so'ngida barcha sinovlardan o'tib choy damlangan choynakni dodxo xonadoniga olib kelishi tasvirlari - Unsinning kurashi g'alaba qilganligini ko'rsatadi. Bunda barcha tafsilotlar bir-biriga uzviy bog'liq holda keltirilganki, ulardan birontasi tushirib qoldirilsa, asarning mazmuni va voqealar haqqoniyligi o'z kuchini yo'qotib qo'yadi. Asarda keltirilgan maymun detali Unsinning ozod bo'lish yo'lidagi kurashi tasviridagj halqalar ichida muhim vosits bo'lib xizmat qilgan. Bu o'rinda yozuvchi maymunning Unsinga tashlanishi Olim dodxoning johilligini isbotlash barobarida u garovda g'irrom yo'l tutib, tungi qabriston daxshati ila kurashayotgan ojiza oldiga maymunni yuborgani , bu orqali o'z manfaati yo'lida har qanaqangi riyokorlik va pastkashlikdan qaytmasligini maymun detali vositasida aniq tasvirlagan. Maymunning o'rnida boshqa hayvon qo'llanmaganligining ham sababi bor. Modomiki, uning o'rnida kuchuk, qush yoki mushuk keltirilganda asar voqealari bu darajada ishonchli chiqmas edi. Chunki yuqorida keltirilgan parranda va hayvonlar qabristonda tunda daydib yurgan bo'lishi mumkin edi. Unsinning ustiga tashlangan daxshatni faqatgina dodxo yuborganini isbotlash uchun maymun detali ishonchli asosdir. Maymun dodxoning



uyida saqlangani sababli ham uning dodxo tomonidan yuborilganini payqashimiz mumkin. Maymun detali asar tarkibida dodxoning razilligini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida uning insoniy ma'naviyaydan mahrumligini ham ko'rsatib bergan.

Ma'lum bo'ladiki, "Daxshat" hikoyasi Unsinning ozodlik uchun kurashi va bu kurash yo'lida vujudiga jasorat va qudrat bag'ishlagan tuyg'ular kichik tafsiloti bilan detallar vositasida hayotiy aks ettirilgan. Hikoya syujeti murakkab badiiy dalillash va tafsilotlash asosiga yaratilgan. Zulm va johillik ko'payganda, insonni ozodlik uchun kurashishdan hech bir kuch to'xtata olmaydi. Mazkur jarayonning isbotini Unsinning vafotidan keyin Nodirmohbegimning dodxo g'azabi va qamchilashidan qo'rqmay uning xonadonidan chiqib ketishi tasvirida keltirilgan. "Nodirmohbegim endi tamom boshqa odam, vujudidagi qo'rquvni yenga olgan, "dodxoning o'zi bilan birga bu dargohni yerning qa'riga yubora" olgan odam. Shu ma'noda, hikoyaning qahramoni ikkita: adabiy-estetik nuqtai nazardan hikiya qahramoni Unsin bo'lsa, ijtimoiy-ma'naviy nuqtai nazardan, shubhasiz, qahramon Nodirmohbegimdir. Eng muhimi, har ikki qahramon ham adibga yot emas, har ikkisiga ham uning shaxsiy hayoti proyeksiyalangan. Ya'ni, "Daxshat" yozilguniga qadar Abdulla Qahhor Unsin hayotini yashab o'tgan bo'lsa, "Daxshat"dan so'ng Nodirmohbegim yo'lini tutdiki, shu tufayligina u 60-yillar o'zbek ziyolilarining "vijdoni"ga aylana oldi." [11;201] Bu orqali yozuvchi zulm salatanatining bir kuni albatta parchalanishi dalili bilan chor imperiyasi yemirilishiga ham ramziy ishora qilgan desak xato bo'lmas, ehtimol. Aynan shu jihatdan ushbu asarni yozuvchining o'tmish voqealari aks etgan asarlari qatoriga kiritishimiz mumkin. Demak, "Daxshat" hikoyasi adibning yozuvchilik mahorati cho'qqisida yaratgan eng nodir asarlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Boboyev To'xta. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. "O'zbekiston" -2022.
2. Quronov D, Mamajonova Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr" -2013.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyot -matbaa ijodiy uyi - 2005
4. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati - 2008.



5. Abdulla Qahhor. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti -1989.
6. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi -2019.
7. Normatov U. Hikoyada detal va tafsilot. O'zbek adabiyoti masalalari. Toshkent. "O'zadabiynashr"- 1962.
8. Abdulla Qahhor. Dumli odamlar. Hikoyalar. Toshkent. O'zbekiston - 2015.
9. Rahimjonov N. Yigirmanchi asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. Toshkent. O'qituvchi -2008.
10. Adabiyotimiz faxri. Toshkent. O'zbekiston- 2007.
11. So'z xiyoboni. Adiblar so'z ta'rifida. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2020.
12. Rahimjonov N. Badiiy so'z estetikasi. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017.
13. Rahmon Qo'chqor. Men bilan munozara qilsangiz. Toshkent. Ma'naviyat. 1998.
14. Asror Samad. Abdulla Qahhor hikmatlari. Toshkent. O'zbekiston. 1990.
15. Mirzayev S. Xalq sevgan adib. Toshkent. O'zbekiston. 1990.